

SUN'IY INTELLEKT ORQALI TIL O'RGANISH

Sharifjonova Ruxsora Sayfullayevna

Email: ruxsorasayfullayevna@gmail.com

Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til kompetetsiyalarini rivojlantirishda Sun'iy intellektning ahamiyati, til organishning qanchalik muhimligi, sun'iy intellektdan foydalanish samarasi va kamchiliklarni bartaraf etish usullari, sun'iy intellekt va ilovalar yordamida til o'rganish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Til o'rganish, sun'iy intellekt, AI yorda-mida til o'rganish, til qobiliyatini rivojlantirish, raqamli vositalar.

Abstract. This article discusses the importance of artificial intelligence in developing language competencies, the significance of learning languages, the effectiveness of using AI, ways to overcome its shortcomings, and opportunities for learning languages with the help of AI and applications.

Keywords: Language learning, artificial intelligence, AI-assisted language learning, developing language skills, digital tools.

Аннотация. В этой статье рассматривается значение искусственного интеллекта в развитии языковых компетенций, важность изучения языков, эффективность использования ИИ, способы устранения его недостатков, а также возможности изучения языков с помощью ИИ и приложений.

Ключевые слова: Изучение языков, искусственный интеллект (ии), изучение языков с помощью ии, развитие языковых навыков, цифровые инструменты.

Kirish. Til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj davrlar o'tsa-da o'zgarmas ehtiyojlardandir. Insonlar o'rtasidagi muloqotda asosiy rol o'ynaydigan ham bu - tildir. Til nafaqat insonlarning muloqot vositasi va bir-birini anglashida, undan tashqari davlatlarning o'zaro diplomatik va do'stona muhitni yaratishda, qolaversa xalqlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini ham o'taydi. Raqamli texnologiyalar asrida yashar ekanmiz bugungi kunda Sun'iy intellekt kirib bormagan tizim yoki soha yo'q. Shuningdek chet tillarni o'rganishda. Sun'iy intellektning o'rni kun sayin oshib borayotgan dunyoning yetakchi davlatlari qatori jonajon yurtimiz O'zbekistonda ham rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt va mobil ilovalar orqali til o'rganish va til kompetensiyalarini rivojlantirishda yangidan yangi dastur va ilovalar ishlab chiqilayotgani, buning asnosida insonlar dunyodagi barcha tillarni individual tarzda, ijtimoiy holatidan qat'iy nazar mustaqil o'rganishlari mumkinligi ham bugungi kunda bu tizimning rivojlanayotganidan dalolat.

Tahlil va muhokama. Zamonaviy ta'lim jarayoniga aqlli yondashuvni qo'llashni o'rganish bo'yicha (Chernykh & Krolevetskaya, 2021)²⁹ ishlar katta qiziqish uyg'otadi. Ular mobil texnologiyalar, raqamli darsliklar va bulutli ilovalar kabi zamonaviy ta'lim texnikalarining maqsadga muvofiqligini tahlil qiladilar. Ilmiy hamjamiyat tomonidan muhokama qilinayotgan muhim masalalardan yana biri — bu ingliz tilining jahon miqyosidagi ta'lim resurslariga kirish imkonini beruvchi til sifatidagi ahamiyatidir. "AI vositalari o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshirishga yordam beradi"

(Rustamova J)³⁰. Ayniqsa kun tartibi tig'iz bo'lgan ammo til o'rganishga qiziqqan insonlar yoshidan qat'iy nazar kunning istalgan vaqtida Sun'iy intellekt va mobil ilovalardan foydalanib mustaqil individual yoki guruhlardagi chatbotlarga a'zo bo'lib, transport vositasida ketayotganda, sayr qilganda hullas har qanday vaziyatda yangi so'zlarni yodlash, o'qish, tinglab tushunish, gaplasha olish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Misol tariqasida ChatGPT, Gemini, Duolingo, qolaversa hozirgi kunda ommalashayotgan "Ibrat farzandlari" ilovasi yordamida chet tillarni o'rganishga bo'lgan talab oshmoqda. Sun'iy intellekt va ilovalarning afzallik jixati shundaki foydalanuvchining yoshiga, bilim darajasiga moslasha oladi. Bosma adabiyotlardan ko'ra kam joy egallashi bilan birga turli vaziyatlarda foydalanish, kichik sig'imli xotiraga ham yuklab olish mumkinligi, interaktivligi bilan qulay bo'lib diqqatni o'ziga tortadi. Masalan, bilim darajasi va layoqatiga ko'ra turli matnlar va dialoglarni, yangi so'zlar jadvalini oson va qiziqarli tuzib berib, ularni yodlaganingizni tekshirish uchun testlar, qo'shimcha savollar berish orqali o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishda suhbatdosh vazifasida foydalanuvchi bilan muloqot qila olgani uchun insonlardagi tortinchoqlik, xato gapirishdan qo'rqish va uyalish kabi komplekslarni yo'qotishga yordam beradi. Gaplashish jarayonida leksik va grammatik xatolarni soniyalar ichida tahrirlab, tuzatib, to'g'ri variantni taqdim eta olishi bilan ahamiyatlidir. Matnlarni tez va ravon tuzib berib, uning yaxlitligini, mazmunan to'g'riligini tekshirib berib yozishga o'rgatadi. Tinglab tushunish uchun turli audio va video materiallar tayyorlab beradi va u orqali mashq qilish uchun testlar tuzib beradi. Albatta dunyoning eng ilg'or kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan, insonlar foydalanishi uchun xizmat qilayotgan sun'iy intellekt va mobil ilovalarning afzallik jihatlaridan tashqari foydalanuvchini e'tiborli bo'lishga undovchi xolatlar ham borki buni inkor etib bo'lmaydi. Sun'iy intellekt ham ba'zan xato qilishi mumkin, sababi u insoniyat aql-u zakovati maxsulidir. Sun'iy intellekt olgan har bir ma'lumotni o'z xotirasida saqlab qoladi. Xato javob berganda albatta ustoz va mutaxxasislardan zarur maslaxatlarni olish kerak. Tezlik jixatdan va ishlash samaradorligi bilan internet bor joylarda hamisha ishlaydi, ammo aksincha bo'lishi ham mumkin. Qurilmaning quvvati yetarlicha bo'lmasa baz'an zarur hollarda pand berib qolishi mumkin. Uzoq vaqt davomida qurilmalarga tikilib turish sog'lik uchun havf solishi mumkinligi bois hamma vaqt oltin o'rtalikni saqlagan holda foydalanish til o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda mafaatli bo'ladi. Bugungi kunda chet tilini o'rganayotgan shaxsning asosiy maqsadi – bu til bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'lish va xalqaro muloqot jarayonlarida faol ishtirok eta olish qobiliyatini shakllantirishdir. Bu yo'nalishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati keskin ortgan. Ular an'anaviy metodlarni samarali to'ldirib, oraliq til kommunikatsiyasi asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. (O'zbekboyeva U.2025)³¹

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sun'iy intellekt rivojlanib borgani sari insonlarda uning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr va mulohazalar yuzaga kelishi tabiiy. Turlicha fikr va munosabatlar ichida til kompetensiyalarini rivojlantirishda Sun'iy intellektning ahamiyati oshgani sari u bilan bir qatorda azaldan insonlar uchun bilimga olishga, til o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Hozirgi shiddatli davrda har bir lahzadan unumli foydalangan holda til o'rganish istagidagi insonlar uchun

Sun'iy intellekt va mobil ilovalar foydalanish ayni muddao, o'zining har tomonlama qulayligi bilan foydalanish samaradorligi ortmoqda. Kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki sun'iy intellekt yordamida til o'rganuvchilar soni kundan kunga ortayotgani va uning imkoniyatlari yanada takomillashishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Til- Toshkent: Yozuvchi, 1998, - 82-83b.
2. World: Integration Of Language, Literature, Translation, And Gastronomic Tourism In Cultural Exchange”, May 14-17, 2025. -317b.
3. Rustamova J. Sun'iy intellekt orqali xorijiy til o'rganuvchilarining faolligini oshirish va ta'lim jarayoniga jalb qilish.-Foreign Languages in Uzbekistan(elektron jurnal) №1(54), 2024.
4. O'zbekboyeva U.A. Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodlari // “The Silk Road and the Turkic World: Integration of Language, Literature, Translation, and Gastronomic Tourism in Cultural Exchange” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025. – May 14–17.